

MUQADDAS MATNLARDA REFLEKSIV TAFAKKUR: KONSEPTUAL MODEL VA QIYOSIY TAHLIL**Texron Furkat o'g'li Murodov**

Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turli diniy va ma'naviy an'analarning muqaddas manbalarida (Avesto, Buddaviylik ta'limotlari, Injil, Tavrot, Zabur, Qur'on hamda Bhagavad Gita) aks etgan refleksiv tafakkur konsepsiyalari qiyosiy-ilmiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida har bir diniy an'anaga xos bo'lgan tushunchalar va amaliy refleksiv mexanizmlar (xususan, Islomdagi muhosaba, Buddaviylikdagi vipassana, Zardushtiylikdagi "Humata, Hukhta, Huvarshta" tamoyili) tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning umumiylik va farqlari aniqlanadi. Tadqiqot yakunida barcha an'analar uchun umumiy bo'lgan "Ma'naviy refleksiv sikl" nomli konseptual model ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: refleksiv tafakkur, muqaddas manbalar, qiyosiy tahlil, muhosaba, vipassana, tavba, tadabbur, ma'naviy rivojlanish, konseptual model.

РЕФЛЕКСИВНОЕ МЫШЛЕНИЕ В СВЯЩЕННЫХ ТЕКСТАХ: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье осуществляется сравнительно-аналитическое исследование концепций рефлексивного мышления, представленных в священных источниках различных религиозно-духовных традиций (Авеста, буддийские учения, Библия, Тора, Псалтирь, Коран, Бхагавад Гита). В рамках исследования анализируются специфические категории и практики рефлексии, характерные для каждой традиции (в частности, мухасаба в исламе, випассана в буддизме, принцип «Хумата, Хукта, Хуваршта» в зороастризме), а также выявляются их сходства и различия. В результате предлагается универсальная концептуальная модель «Духовный рефлексивный цикл».

Ключевые слова: рефлексивное мышление, священные источники, сравнительный анализ, мухасаба, випассана, покаяние, тадоббур, духовное развитие, концептуальная модель.

REFLECTIVE THINKING IN SACRED TEXTS: A CONCEPTUAL MODEL AND COMPARATIVE ANALYSIS

Annotation. This article presents a comparative scholarly analysis of reflective thinking concepts articulated in the sacred texts of various religious and spiritual traditions, including the Avesta, Buddhist teachings, the Bible, the Torah, the Psalms, the Quran, and the Bhagavad Gita. The study explores tradition-specific terminologies and reflective practices, such as muhasabah in Islam, vipassana in Buddhism, and the "Humata, Hukhta, Huvarshta" principle in Zoroastrianism, identifying both convergences and divergences among them.

Keywords: reflective thinking, sacred texts, comparative analysis, muhasabah, vipassana, repentance, tadabbur, spiritual development, conceptual model.

Kirish. Refleksiv tafakkur inson tomonidan o'z qarorlari, xatti-harakatlari va e'tiqodiy pozitsiyalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, ularning axloqiy-ma'naviy asoslarini anglash hamda shaxsiy kamolot sari ongli intilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon diniy tizimlarning ichki mantiqida markaziy o'rin egallagan psixologik-falsafiy fenomenlardan biri hisoblanadi. Garchi "refleksiya" tushunchasi ilmiy muomalaga falsafiy va psixologik tadqiqotlar doirasida kirib kelgan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati deyarli barcha diniy va ma'naviy an'analarda uchraydigan asosiy kategoriyalar — tafakkur, tavba, o'zini anglash, nafsni nazorat qilish va axloqiy o'zgarish kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir.

Muqaddas matnlar insonni faqat tashqi diniy amallarni bajarishga emas, balki ichki dunyosini muntazam tahlil qilishga, niyat va xatti-harakatlarining mohiyatini anglashga undaydi. Shu bois refleksiv tafakkur diniy tajribada individual ongni shakllantiruvchi, shaxsiy mas'uliyat va axloqiy yetuklikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon nafaqat e'tiqodiy sodiqlikni mustahkamlaydi, balki insonning ichki muvozanati va psixologik barqarorligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — turli diniy va ma'naviy an'analarga mansub muqaddas matnlarda ifodalangan refleksiv tafakkur modellarini konseptual va qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarni aniqlash, shuningdek, mazkur modellarni zamonaviy insonning ma'naviy-psixologik rivoji nuqtayi nazaridan talqin etishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida Zardushtiylikning muqaddas manbasi — Avesto, Buddaviylik matnlari, yahudiylik va xristianlikning asosiy manbalari (Tavrot, Zabur va Injil), Islomning muqaddas kitobi Qur'oni Karim hamda hind falsafiy-diniy an'anasining muhim manbasi bo'lgan Bhagavad Gita tizimli ravishda o'rganiladi.

Mazkur qiyosiy yondashuv refleksiv tafakkurning turli diniy tizimlarda qanday konseptualashtirilganini aniqlash, shuningdek, ularning umumiy insoniy qadriyatlarga tayangan holda yagona ma'naviy-refleksiv paradigma shakllantirish imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Refleksiya tushunchasi g'arb falsafiy tafakkurida dastlab insonning o'zini anglash va ichki tajribasini tahlil qilish mexanizmi sifatida shakllangan. Jumladan, J.Lokk refleksiyani inson ongining o'z faoliyatiga qayta murojaat qilishi, ya'ni bilish jarayonining ichki manbai sifatida talqin etgan bo'lsa, J.J.Russo uni shaxsiy axloqiy mas'uliyat va o'zini tarbiyalashning muhim sharti sifatida ko'rib chiqqan. Ushbu yondashuvlarda refleksiya shaxsning ichki dunyosini anglash va ijtimoiy hayotda ongli pozitsiya egallash imkonini beruvchi asosiy epistemologik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tafakkurda refleksiya tushunchasi yanada tizimli va amaliy mazmun kasb etadi. Xususan, J.Dewey refleksiyani "tajribani maqsadga yo'naltirilgan holda qayta qurish va uning natijalarini ongli ravishda baholash jarayoni" sifatida ta'riflab, uni ta'lim va tarbiya jarayonining markaziy mexanizmi deb hisoblaydi. Dewey konsepsiyasida refleksiya tasodifiy

fikrlash emas, balki muammo, tajriba va natijalar o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni aniqlashga qaratilgan ongli intellektual faoliyatdir.

Mazkur g'oya D.Schön tomonidan professional faoliyat kontekstida rivojlantirilib, refleksiyaning ikki asosiy shakli — “harakat davomida o'ylash” (reflection-in-action) va “harakatdan so'ng o'ylash” (reflection-on-action) ajratib ko'rsatiladi. Ushbu modelga ko'ra, refleksiya nafaqat faoliyat yakunida amalga oshiriladigan tahlil, balki qaror qabul qilish jarayonining bevosita tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu yondashuv muqaddas matnlarda tasvirlangan doimiy o'zini kuzatish, niyatni tekshirish va axloqiy baholash amaliyotlari bilan strukturaviy jihatdan uyg'unlik kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Shu tariqa, falsafiy va pedagogik tafakkurda shakllangan refleksiya nazariyalari muqaddas manbalarda ifodalangan ma'naviy o'zgarish modellarini ilmiy jihatdan talqin qilish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

Diniy va ma'naviy an'analarda refleksiv tafakkur inson ongini oliy haqiqat, ilohiy iroda yoki ichki axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan ongli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon shaxsning faqat tashqi xulq-atvorini emas, balki ichki niyatlari, fikrlash uslubi va axloqiy motivlarini ham qamrab oladi. Shu bois diniy refleksiya ko'pincha ichki nazorat va ma'naviy mas'uliyat mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Mazkur kontekstda refleksiv tafakkur bir qator o'zaro bog'liq tushunchalar orqali ifodalanadi. Jumladan, o'z-o'zini anglash (self-awareness) — shaxsning ichki holatini idrok etishi; tanbeh va pushaymonlik (remorse) — noto'g'ri xatti-harakatlarni tan olish; tazkiya — ruhiy va axloqiy poklanish; transsendensiya — shaxsiy “men” chegaralaridan chiqib, oliy ma'naviy darajaga intilish kabi holatlar refleksiv jarayonning tarkibiy elementlari hisoblanadi. Ushbu bosqichlar ko'plab muqaddas matnlarda ketma-ketlik va sikliklik tamoyiliga asoslangan holda tasvirlanadi.

Diniy refleksiya shaxsni passiv itoatkorlikka emas, balki ongli e'tiqod va axloqiy tanlovga undaydi. Bu jihatdan u zamonaviy psixologiyada refleksiyaning o'z-o'zini tartibga solish (self-regulation) va shaxsiy rivojlanish mexanizmi sifatidagi talqinlari bilan mazmunan yaqinlik kasb etadi. Natijada, muqaddas matnlardagi refleksiv tafakkur modellarini tahlil qilish zamonaviy insonning ma'naviy barqarorligi va psixologik muvozanatini ta'minlashda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Sharq ma'naviy-falsafiy tizimlarida refleksiv tafakkur insonning ichki axloqiy muvozanatini ta'minlovchi va ongni tartibga soluvchi markaziy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu an'analarda refleksiya nafaqat retrospektiv tahlil, balki oldindan ongli baholash, niyatni tekshirish va harakatni ma'naviy mezonlar asosida boshqarish vositasi sifatida talqin etiladi.

Zardushtiylikning muqaddas matni bo'lgan Avestoda refleksiv tafakkur insonning ichki niyati, nutqi va amaliy faoliyati o'rtasidagi uzviy uyg'unlikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimning markaziy aksiologik modeli “Humata, Hukhta, Huvarshta” — ya'ni ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal uchligin(triada)da mujassamlangan bo'lib, u shaxsdan har bir xatti-harakatni amalga oshirishdan avval uning axloqiy mazmunini ongli ravishda baholashni talab qiladi. Shu jihatdan mazkur tamoyilni oldindan refleksiya (reflection-before-action) ning qadimiy modeli sifatida baholash mumkin.

Avestoning Yasna 30 bobida insonning tanlov erkinligi va axloqiy javobgarligi alohida urg'u bilan ta'kidlanadi. Undagi "tafakkuringni yorug'likka qarat" hamda "o'zingni o'zing hukm qil" mazmunidagi chaqiriqlar shaxsni o'z harakatlarining sabab va oqibatlarini ongli ravishda tahlil qilishga undaydi. Bu yerda refleksiya passiv mulohaza emas, balki axloqiy qaror qabul qilishga tayyorlovchi faol kognitiv jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada, zardushtiylikdagi refleksiv model shaxsiy mas'uliyat, ichki intizom va axloqiy barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u insonni har bir amalining ma'naviy oqibatlari haqida muntazam o'ylashga chorlaydi.

Buddaviylik an'anasida refleksiv tafakkur markaziy o'rinni egallab, u asosan Vipassana — ya'ni ichki kuzatish va ongni hushyor holda idrok etish amaliyoti orqali amalga oshiriladi. Vipassana subyektni fikrlar, his-tuyg'ular va tana sezgilarini baholamasdan, ularni xolis kuzatishga o'rgatadi. Ushbu jarayon chuqur metakognitiv faoliyat bo'lib, insonning o'z aqliy jarayonlariga nisbatan xabardorligini oshiradi.

Pali kanonidagi Satipatthana Suttada diqqatni jamlashning to'rt asosiy sohasi — tana, his-tuyg'u, ong va hodisalarni kuzatish tavsiya etiladi. Ushbu kuzatuvlar refleksiv tafakkurning empirik va tajribaviy shaklini ifodalaydi, ya'ni inson o'z ichki holatini nazariy baholash emas, balki bevosita idrok orqali anglaydi.

Buddaviylikda refleksiyaning muhim falsafiy asosi Anicca — barcha narsalarning o'zgaruvchanligi haqidagi ta'limotdir. Ushbu tamoyil shaxsni doimiylik illyuziyasidan xalos etib, o'z fikrlari, ego va intilishlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqishga undaydi. Shu tariqa, refleksiya bu yerda nafaqat tahlil, balki ichki ozodlikka eltuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bhagavad Gitada refleksiv tafakkur insonning o'z tabiati va ijtimoiy-ma'naviy vazifasini anglash — svadharma tushunchasi atrofida shakllanadi. Svadharma shaxsdan o'z qobiliyatlari, mas'uliyatlari va hayotiy rolini chuqur tahlil qilishni talab etadi, bu esa refleksiyaning identitetga yo'naltirilgan shaklini ifodalaydi.

Gitadagi Karma Yoga tamoyili — ya'ni natijaga bog'lanmagan amal — insonni harakat motivlarini doimiy ravishda tekshirishga undaydi. Bu yerda refleksiya tashqi natijadan emas, balki ichki niyatdan kelib chiqadi. Gitaning mashhur 2:47 oyatida "faqat amal qilishga huquqing bor, ammo uning mevasiga emas" degan g'oya insonni utilitar fikrlashdan xalos etib, axloqiy ongni mustahkamlaydi.

Mazkur model refleksiyaning motivatsion va axloqiy darajasini ifodalaydi. Inson o'z harakatlarini baholashda tashqi muvaffaqiyat emas, balki ichki halollik va burchga sodiqlik mezoniga tayangan holda qaror qabul qiladi.

Yahudiylilik dinlarida refleksiya asosan ilohiy qonun va axloqiy mezonlar bilan o'zini solishtirish, ichki poklanish va ma'naviy to'g'rilanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi, xususan:

Tavrotda refleksiv tafakkur teshuva — ya'ni o'z xatolarini anglash va ulardan qaytish tamoyili orqali ifodalanadi. Bu jarayon insonni o'z xatti-harakatlarini ilohiy qonunlar bilan solishtirishga

undaydi. Zabur esa ichki monolog va munojot shaklida ifodalangan refleksiyaning yorqin namunalarini o'z ichiga oladi. Zaburning 139:23–24-oyatlarida Dovudning “meni sinab ko'r” mazmunidagi iltijosi insonning o'z ichki dunyosini Yaratuvchining huzurida tahlil qilishga tayyorligini ifodalaydi. Bu holat refleksiyaning ilohiy yo'naltirilgan o'zini tekshirish shakli sifatida baholanadi.

Iso Masih ta'limotida refleksiya ko'pincha bevosita buyruqlar orqali emas, balki masallar orqali shakllantiriladi. “Adashgan o'g'il” haqidagi masalda “u o'ziga keldi” iborasi shaxsning boshidan kechirgan tajribasini qayta tahlil qilishi va ichki o'zgarish nuqtasiga yetib kelishini anglatadi. Bu refleksiyaning aniq reflection-on-action modeli hisoblanadi. “Ko'zdagi giyoh va boshqadagi cho'p” haqidagi masal esa o'zini tanqidiy baholashning ustuvorligini ko'rsatadi. Shu tariqa, Injilda refleksiya axloqiy kamolotga eltuvchi pedagogik vosita sifatida talqin qilinadi.

Islom manbalarida refleksiv tafakkur aniq terminologiya orqali tizimlashtirilgan. Tafakkur umumiy fikrlash jarayonini anglatgan bo'lsa, tadabbur Qur'on oyatlari va hodisalar ustida chuqur mulohaza yuritishni ifodalaydi. Eng amaliy refleksiv tushuncha esa muhosaba bo'lib, u insonni o'z amallarini muntazam ravishda hisobga olishga undaydi.

Qur'onda tafakkur va tadaburga doimiy chaqiriqlar inson ongini faol holatda saqlashga qaratilgan. Muhosaba amaliyoti esa so'fiy tafakkurda Al-Horis al-Muhosibiy tomonidan mukammal tizimlashtirilib, kundalik reflektiv tahlilning amaliy modeliga aylantirilgan.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli diniy va ma'naviy an'analarda refleksiv tafakkur terminologik va marosimiy jihatdan farqlansa-da, ularning ichki mantiqiy tuzilmasi va funksional vazifalari o'zaro yaqinlik kasb etadi. Quyidagi jadvalda muqaddas matnlarda refleksiv tafakkurning asosiy modellarini qiyosiy tahlil qilish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval


Refleksiv tafakkurning qiyosiy tahlili

Muqaddas matn	Asosiy refleksiv printsip	Amaliyot turi	Maqsadi
Avesto	Triada (Humata–Hukhta–Huvarshta)	Oldindan refleksiya (harakatdan avval niyatni tekshirish)	Ma'naviy poklik va Ahura Mazda bilan uyg'unlik
Buddaviylik	Vipassana va Anicca	Metakognitiv kuzatish (fikir va hissiyotlarni hukmsiz idrok etish)	Nafsdan xalos bo'lish va Nirvanaga erishish
Bhagavad Gita	Svadharma va Karma Yoga	Motivatsion refleksiya (harakat sabablarini poklash)	Moksha va burchni ado etish
Tavrot/ Zabur	Tavba (Teshuva) va ilohiy yo'naltirilgan o'zini tekshirish	Munojot va ichki ochilish	Yaratuvchi bilan ahd va munosabatni tiklash
Injil	O'z-o'zini tan olish va masallar orqali idrok	Vaziyatli refleksiya va axloqiy o'zini tanqid qilish	Ruhiy yangilanish va Yaratuvchi amrlariga

			moslashuv
Qur'oni Karim	Tafakkur, Tadabbur va Muhosaba	Doimiy mulohaza va o'zini hisobga tortish	Taqvo va ilohiy rozilikka erishish

Mazkur qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, refleksiv tafakkur barcha an'analarda shaxsiy ongni uyg'otish, axloqiy mas'uliyatni kuchaytirish va ichki o'zgarishni ta'minlashga qaratilgan universal mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi umumiyliklar asosida muqaddas matnlardagi refleksiv tafakkurni yagona integrativ konseptual model doirasida umumlashtirish mumkin. Ushbu model shartli ravishda "Ma'naviy refleksiv tsikl" deb nomlanadi va u besh ketma-ket bosqichni o'z ichiga oladi (1.1-rasmga qarang):



1.1-rasm. Ma'naviy refleksiv tsikl.

1-bosqich. Uyg'onish (Awareness) - shaxsning o'z ichki holati, xatosi yoki cheklovlarini anglab yetishi. Bu bosqichda ong muayyan beqarorlik yoki nomukammallikni sezadi. Mazkur holat buddaviylikdagi Vipassana, Injildagi "o'ziga kelish" iborasi bilan mazmunan mos keladi.

2-bosqich. Tahlil (Examination) - anglangan holatning sabablarini, niyat va amallarning axloqiy mezonlarga mosligini tekshirish jarayoni. Bu Qur'ondagi muhosaba, Gitadagi svadharmani anglash orqali ifodalanadi.

3-bosqich. Tanbeh va ichki idrok (Contrition / Insight) - xato yoki cheklovni tan olish, ichki pushaymonlik va o'zgarishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi. Zaburdagi iltijolar va Avestodagi "yaxshi fikrga qaytish" mazkur bosqichning klassik ifodalaridir.

4-bosqich. Qayta yo'nalish (Reorientation) - yangi niyat va axloqiy qaror asosida hayotiy pozitsiyani o'zgartirish. Tavrotdagi teshuva va Islomdagi tavba ushbu bosqichning diniy-amaliy namunasidir.

5-bosqich. Integratsiya (Integration) - yangi anglashuv va qarorlarni kundalik hayot, axloqiy xulq va barqaror amaliyotga singdirish. Ushbu bosqich barcha an'analarda refleksiv jarayonning yakuniy va barqaror natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tsikl refleksiyani bir martalik akt emas, balki doimiy takrorlanib boruvchi ma'naviy-kognitiv jarayon sifatida tushunishga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dunyoda ma'naviy refleksiyaning ahamiyati tahlil qilingan muqaddas matnlarga asosan shuni ko'rsatadiki, refleksiv tafakkur turli muqaddas matnlarda terminologik va marosimiy jihatdan farqlangan bo'lsa-da, mazmunan insonning ichki kamoloti va axloqiy mas'uliyatini ta'minlovchi universal mexanizm hisoblanadi. Ushbu matnlar insonni faqat ilohiy haqiqatni izlashga emas, balki o'z niyatlari, qarorlari va kundalik xatti-harakatlarini muntazam tahlil qilishga undaydi.

Zamonaviy axborotga to'yingan, tezkor va distraksiyalarga boy muhitda qadimiy refleksiv amaliyotlar insonning psixologik barqarorligi, ma'naviy muvozanati va ongli hayot tarzini saqlashda muhim resurs sifatida namoyon bo'lmoqd. Bu shuni anglatadiki, chinakam ma'naviy o'sish tashqi marosim yoki deklarativ e'tiqoddan emas, balki ichki, izchil va ongli refleksiya jarayonidan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avesta. Yasna. — Transliteratsiya va sharhlar bilan. — Toshkent: Fan, 2001.
2. Boyce M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. — London: Routledge, 2001.
3. Bhagavad Gita. Sanskrit matni va sharhlar. — Delhi: Motilal Banarsidass, 2014.
4. Radhakrishnan S. Indian Philosophy. Vol. 1–2. — London: George Allen & Unwin, 1951.
5. Pali Canon. Satipatthana Sutta. — Boston: Wisdom Publications, 2010.
6. Rahula W. What the Buddha Taught. — New York: Grove Press, 1974.
7. Bibliya. Eski va Yangi Ahd. — Toshkent: Muqaddas Kitob Jamiyati, 2018.
8. Wright N.T. Jesus and the Victory of God. — Minneapolis: Fortress Press, 1996.
9. Qur'oni Karim. — O'zbekcha tarjima va tafsirlar. — Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.
10. Al-G'azzoliy A. Ihyo ulum ad-din. — Qohira: Dar al-Kutub, 2004.
11. Al-Muhosibiy H. Ar-Ri'oya li huquq Alloh. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2001.
12. Ergashev I. Islom falsafasi va ma'naviy tafakkur. — Toshkent: Akademnashr, 2016.
13. Shermuhamedov S. Ma'naviyat asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2019.
14. Quronov M. Sharq falsafasi tarixi. — Toshkent: Fan, 2014.
15. Usmonov U. Tasavvuf va shaxs kamoloti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
16. Yo'ldoshev J. Pedagogik refleksiya va kreativ tafakkur. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

17. Musurmonova O. Shaxs ma'naviy rivojida o'zini anglash muammolari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
18. Abdullayev A. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada refleksiv yondashuv. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
19. Schön, D.A. The Reflective Practitioner. — New York: Basic Books, 1983.
20. Dewey, J. How We Think. — Boston: D.C. Heath, 1933.
21. Mezirow, J. Transformative Learning in Practice. — San Francisco: Jossey-Bass, 2009.

